LE PAIN LEKSEMALI FRANSUZ MAQOLLARIDA KONTRAST

Umirzakov Ulug‘bek Sindarovich
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlar tillari va madaniyati instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
Sindorov Rajapboy Ulug‘bek o‘g‘li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Abstract: This article examines the phenomenon of contrast in French proverbs containing the lexeme le pain (“bread”). Bread, as a culturally and symbolically loaded concept, reflects fundamental human values such as labor, livelihood, poverty, wealth, patience, and moral behavior. The study focuses on how contrast is linguistically and semantically constructed in French paremias through oppositions such as abundance versus scarcity, effort versus idleness, and material need versus spiritual value. By applying semantic, stylistic, and linguocultural analysis, the research reveals that le pain functions not only as a lexical unit but also as a key cultural marker shaping evaluative and axiological meanings. The findings contribute to paremiology, cognitive linguistics, and cross-cultural studies by highlighting the role of contrast in proverb semantics.

Keywords: French proverbs, le pain, contrast, paremiology, cultural semantics, lexeme

Annotatsiya: Mazkur maqolada le pain (“non”) leksemasi ishtirok etgan fransuz maqollarida kontrast hodisasi lingvistik va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Non fransuz madaniyatida mehnat, tirikchilik, sabr, qashshoqlik va to‘kinlik kabi tushunchalarni ifodalovchi muhim ramziy birlik hisoblanadi. Tadqiqot davomida maqollarda qarama-qarshilikning turli ko‘rinishlari — mehnat va dangasalik, mo‘lchilik va tanqislik, moddiy va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi zidliklar aniqlanadi. Semantik, stilistik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida le pain leksemasining baholovchi va aksiologik mazmun hosil qilishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari paremiologiya va lingvomadaniyatshunoslik sohalari uchun nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: fransuz maqollari, le pain, kontrast, paremiologiya, lingvomadaniyat, semantik tahlil

Аннотация: В статье исследуется явление контраста во французских пословицах с лексемой le pain («хлеб»). Хлеб рассматривается как культурно значимый символ, отражающий такие базовые ценности, как труд, средства к существованию, бедность, достаток и нравственные установки. Особое внимание уделяется семантическим и стилистическим способам выражения противопоставления, включая оппозиции изобилия и нехватки, труда и лени, материальных и духовных ценностей. На основе семантического, стилистического и лингвокультурологического анализа показано, что

ISSN 3030-3907

лексема le pain функционирует как важный носитель оценочных и аксиологических значений. Полученные результаты расширяют представления о французской паремиологии и культурной семантике.

Ключевые слова: французские пословицы, le pain, контраст, паремиология, культурная семантика, лексема

Kirish

Fransuz paremiologiyasida pain (non) leksemasi o‘ziga xos semantik, madaniy va ramziy yuklamaga ega bo‘lib, u inson hayotining ajralmas qismi sifatida turli xil maqollarda qo‘llanadi. Non qadimdan nafaqat jismoniy oziq-ovqat, balki hayot, mehnat, muhabbat va baraka timsoli sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, fransuz maqollarida pain atrofida kontrast hodisasi tez-tez uchraydi, ya’ni non boshqa tushunchalar (vin – sharob, amour – sevgi, travail – mehnat, homme – odam) bilan qiyosiy, zid yoki muqobil munosabatda qo‘yiladi. Ushbu maqolada berilgan fransuz maqollarining o‘zbekcha tarjimasi, ularning semantik-pragmatik tahlili va kontrast hodisasining namoyon bo‘lishi yoritiladi.

À bonne faim il n’y a pas de mauvais pain (Kuchli ochlikda yomon non bo‘lmaydi). Yaxshi – yomon kategoriyasida kontrast hodisasi pain orqali ifodalanadi. Ochlik sharoitida sifat kategoriyasi yo‘qoladi. Bu yerda fiziologik ehtiyoj – estetik bahodan ustun turadi.

Maqol mazmunidan ko‘rinadiki, fransuz xalq tafakkurida ochlik – universal tenglashtiruvchi kuch sifatida tasavvur qilinadi. Agar inson kuchli och qolsa, nonning sifati (u oq bo‘ladimi, qora bo‘ladimi, yangi yoki qotgan bo‘ladimi) ahamiyatini yo‘qotadi. Bu jarayonda fiziologik ehtiyoj – estetik mezondan ustun keladi.

Bu maqolda pain leksemasi orqali yaxshi-yomon kontrasti ifodalanadi, ammo “ochlik” konsepti ushbu oppozitsiyani yo‘qotadi. Natijada nonning mavjudligi uning sifatidan ustun qo‘yiladi. Maqol orqali xalq tajribasida hayotiy ehtiyoj – madaniy-estetik qadriyatlardan ustun ekanligi semantik jihatdan asoslab beriladi.

Sans pain ni vin, l’amour n’est rien (Non va sharobsiz sevgi hech narsa emas). Bunda oziq-ovqat va sevgi bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Hayotiy asos (non va sharob) bo‘lmasa, ruhiy-emosional qadriyat (muhabbat) befoydaligi uqtiriladi.

Mazkur maqolda fransuz xalq tafakkurida ikki asosiy qadriyat – moddiy hayot (non va sharob) va ma’naviy hayot (sevgi) qiyoslanadi. Ularning o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilishi shuni ko‘rsatadiki, non va sharob bo‘lmasa, insonning jismoniy ehtiyoji qondirilmaydi. Bu sharoitda sevgi kabi yuksak emosional qadriyat o‘z kuchini yo‘qotadi. Ya’ni, fransuz donishmandligi bu maqol orqali

ISSN 3030-3907

sevgi quruq romantik tuyg‘u emas, balki moddiy asosga tayanganida barqaror bo‘ladigan hodisa ekanligini uqtiradi.

Shuningdek, maqolda madaniy xususiyat ham aks etadi. Chunki fransuzlar hayotida “pain” va “vin” shunchaki ovqat emas, balki milliy identitet ramzi hisoblanadi. Shu bois bu maqolda pain (non) – hayotiy zarurat, vin (sharob) – hayot zavqi, amour (sevgi) – ruhiy-emosional boylik, uchlik kontrast asosida ifodalanadi.

Maqolda pain, vin va amour konseptlari o‘zaro zid qo‘yilgan holda hayotiy haqiqat ifodalanadi. Moddiy asos (non va sharob) bo‘lmasa, ma’naviy qadriyat (sevgi)ning qadri qolmasligi fransuz xalq tajribasi asosida bildiriladi. Demak, mazkur maqol semantik jihatdan moddiy hayot va ma’naviy hayot, zarurat va ehtiros, poydevor va ustqurma oppozitsiyalari orqali shakllangan. Bu esa fransuz xalq tafakkurida non va sharobning nafaqat jismoniy, balki sevgi barqarorligining ham sharti sifatida talqin etilishini ko‘rsatadi.

S’il y a pain et vin, le Roi peut venir (Agar non va sharob bo‘lsa, podshoh ham kelishi mumkin). Ushbu maqolda oddiy oziq-ovqat va yuqori ijtimoiy maqom (Roi) bir-biriga zid qo‘yiladi. Oddiy hayotiy ne’matlar shoh qadridan ham muhimroq ko‘riladi.

Fransuz xalq tafakkurida non va sharob shunchaki oziq-ovqat emas, balki milliy identitet va hayot falsafasining markazida turadi. Ushbu maqolda: Agar oddiy xalqda non va sharob bo‘lsa, u o‘zini shohga teng his qiladi. Moddiy ta’minot mavjud bo‘lsa, yuqori ijtimoiy maqomning (Roi) qadri yo‘qoladi. Demak, shohning hokimiyati va obro‘si xalqning hayotiy ehtiyojlari bilan o‘lchanadi.

Bu maqol aslida ijtimoiy-madaniy konnotatsiyaga ham ega, fransuz xalq madaniyatida moddiy ne’matlar (non va sharob) oddiy odamlar uchun podshoh hokimiyatidan ham muhimroq. Bu, bir tomondan, xalqning erkinlikka intilishi va tenglik g‘oyasini ham eslatadi.

Mazkur maqolda pain et vin konsepti Roi konseptiga zid qo‘yilib, fransuz xalq tajribasida quyidagi semantik xulosaga kelinadi: hayotiy ehtiyojlar va siyosiy-hukmiy qadriyatlar; oddiy oziq-ovqatning mavjudligi hatto shohning kelishidan ham muhimroq; maqol orqali xalq donishmandligi moddiy asos – ijtimoiy maqomdan ustun ekanini ta’kidlaydi.

Demak, “S’il y a pain et vin, le Roi peut venir” maqoli semantik jihatdan moddiy poydevor (non va sharob) va ijtimoiy obro‘ (Roi) kontrasti asosida shakllanadi va fransuz xalq tafakkurida moddiy farovonlikning ustuvorligini ifodalaydi.

Où il y a du pain, tout s’oublie (Non bor joyda hamma narsa unutiladi). Oziq-ovqat va muammolar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Non mavjudligi boshqa tashvishlarni so‘ndiruvchi omil sifatida talqin qilinadi.

ISSN 3030-3907

Bu maqolda pain leksemasi nafaqat jismoniy oziq, balki psixologik xotirjamlik manbayi sifatida talqin qilinadi. Inson och qolsa, dard-u tashvish yanada og‘ir tuyuladi. Lekin to‘qlik – ham moddiy, ham ruhiy yengillikni ta’minlaydi.

Fransuz madaniyatida non qadimdan hayot barqarorligi va totuvlikning kafolati sifatida qaralgan. Shu sababdan maqol orqali xalq donishmandligi moddiy ne’matning mavjudligi – ruhiy iztiroblarni yengib o‘tuvchi kuch ekanini ta’kidlaydi.

Shuningdek, bu maqol o‘zida ekzistensial mazmun ham saqlaydi, inson yashashi uchun eng zarur narsa – non; qolgan barcha tashvishlar uning yonida arzimas bo‘lib qoladi.

Demak, fransuz xalq donishmandligi bu maqol orqali moddiy ne’matlarning ruhiy osoyishtalikni ta’minlashdagi ustuvor o‘rnini ta’kidlaydi. Non mavjudligi – tashvishlarning unutilishiga sabab bo‘luvchi asosiy omildir.

Mieux vaut une miette de pain avec amour que poules grasses avec douleur (Qayg‘u keltiruvchi semiz tovuqlardan sevgi bilan bir burda non yaxshiroq). Bu maqolda kam–ko‘p, qashshoqlik–boylik, sevgi–dard kabi qarama-qarshi fikrlar o‘z ifodasini topgan. Unda pain kamlik (miette) ramzi, ammo ma’naviy qadriyat (amour) bilan yuksaklashtiriladi.

Maqol o‘zida chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmunni mujassam etadi. “Bir burda non” – kamchilik, ehtiyoj, oddiy hayot ramzi. Ammo agar sevgi bilan bo‘lsa, bu kamchilik emas, balki baxt manbayi sifatida qabul qilinadi. “Semiz tovuqlar” esa tashqi farovonlik, boylik, mo‘l-ko‘llikni anglatadi. Biroq u “douleur” bilan kelganda, ya’ni ruhiy dard bilan qo‘shilganda, bu boylikning qadri qolmaydi.

Bu yerda fransuz xalq donishmandligi ma’naviy qadriyatlar moddiy ne’matlardan ustunroq ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, maqol xalqona falsafani ochib beradi, insonning baxti ko‘plab ne’matlarda emas, balki muhabbat va osoyishtalikda.

Fransuz madaniyatida non doimiy ravishda hayotiy zarurat sifatida ramzlashadi. Bu maqolda ham pain oz miqdorda (miette) bo‘lsa-da, sevgi bilan birga bo‘lsa, haqiqiy qadrga ega bo‘ladi. Demak, moddiy ta’minotning kamligi sevgi orqali qoplanadi, boylik esa dard bilan yengilib qoladi.

“Mieux vaut une miette de pain avec amour que poules grasses avec douleur” maqolida quyidagi semantik kontrastlar kuzatiladi: kamlik (miette de pain) va ko‘plik (poules grasses) ; sevgi (amour) va dard (douleur) ; qashshoqlikdagi baxt va boylikdagi iztirob.

Semantik jihatdan maqol shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy qadriyatlar (sevgi, totuvlik) moddiy farovonlikdan ko‘ra muhimroqdir. Non kam bo‘lsa ham, sevgi

ISSN 3030-3907

bilan u eng katta boylikka aylanadi, aksincha, mo‘l-ko‘l taomlar dard bilan bo‘lsa, inson uchun befoyda va ma’nosizdir.

L’homme ne vit pas seulement de pain (Inson faqat non bilan yashamaydi). Jismoniy oziq va ma’naviy ehtiyoj bir-biriga zid qo‘yiladi. Non hayot uchun zarur, ammo yetarli emasligi ta’kidlanadi.

Maqolda fransuz xalq falsafasi inson mavjudligi ikki asosga – moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga tayanishini ko‘rsatadi. Non – hayotiy zarurat, och qolmaslik, yashashning minimal sharti. Lekin insonni faqat non bilan qondirish mumkin emas, chunki u ruhiy dunyoga ega mavjudot.

Bu hikmatda xalq tajribasi va diniy-falsafiy qarashlar mujassam, insonning hayoti faqat tan ehtiyojini qondirishdan iborat emas, balki ruhiy oziqa – sevgi, totuvlik, bilim, e’tiqod bilan ham boyib boradi.

Shunday qilib, maqol oddiygina “non bilan yashab bo‘lmaydi” degan fikrni emas, balki inson hayoti moddiy va ma’naviy uyg‘unlikda to‘liq bo‘lishi kerak degan falsafani ifodalaydi.

Bu maqol fransuz xalq donishmandligining chuqur falsafiy xulosasini beradi, insonning mavjudligi nafaqat tan bilan, balki ruh bilan ham bog‘liqdir. Non hayotning sharti, ammo ma’naviy qadriyatlar hayotning mazmunidir.

Mieux vaut du pain dans la corbeille qu’un bel homme dans la rue (Savatda non bo‘lgani ko‘chadagi chiroyli erkakdan yaxshiroq). Bunda amaliy oziq va estetik joziba bir-biriga zid qo‘yiladi. Ayollar ijtimoiy-madaniy qadriyatida non – erkak go‘zalligidan ustun qo‘yiladi.

Maqolda fransuz xalq donishmandligi qadimiy, ammo kuchli ijtimoiy xulosani ifoda etadi, “Savatdagi non” – bu uyda mavjud oziq-ovqat, ya’ni amaliy ehtiyojlarning qondirilishi. Bu barqarorlik, xotirjamlik va hayotiy asosni bildiradi. “Ko‘chadagi chiroyli erkak” esa tashqi go‘zallik, estetik zavq, lekin u o‘tkinchi va amaliy foydadan yiroq.

Maqolda aslida go‘zallikning o‘tkinchiligi va oziq-ovqatning zarurligi ta’kidlanadi. Fransuz ayollari qadriyatlarida non – ya’ni amaliy hayotiy ta’minot – erkakning tashqi jozibasidan ko‘ra ustunroq hisoblanadi. Bu qarash pragmatik hayot falsafasidan kelib chiqadi, go‘zallik qorinni to‘ydirmaydi, non esa hayotni ta’minlaydi.

Shuningdek, “corbeille” (savat) – uy ichidagi barqarorlik, “rue” (ko‘cha) – tashqaridagi beqarorlik va o‘tkinchilik sifatida ramziy ma’no kasb etadi. Demak, maqolda uydagi barqaror hayot tashqaridagi estetik zavqlardan ustun qo‘yilgan.

“Mieux vaut du pain dans la corbeille qu’un bel homme dans la rue” maqolida quyidagi kontrastlar mavjud: amaliy oziq (pain) va estetik joziba (bel homme); uy ichidagi barqarorlik (corbeille) va tashqi o‘tkinchilik (rue); moddiy ta’minot va ko‘rkam tashqi ko‘rinish.

ISSN 3030-3907

Semantik jihatdan maqol shuni ta’kidlaydiki: inson hayotida barqaror moddiy ta’minot estetik go‘zallikdan ham muhimdir. Non – hayotiy asos, erkakning tashqi chiroyi esa faqat o‘tkinchi zavq. Natijada, bu maqol fransuz xalq donishmandligining hayotiy pragmatizmiga asoslangan.

Qui sème bon grain récolte bon pain (Yaxshi urug‘ sepkan, yaxshi non oladi). Mehnat va undan olinadigan natija bir-biriga kontrast qo‘yiladi. Pain mehnat mahsuli sifatida qaraladi.

Fransuz xalq maqoli oddiy qishloq xo‘jaligi jarayonidan foydalanib, chuqur falsafiy mazmunni ifodalaydi. “Yaxshi urug‘ sepish” – bu nafaqat dehqonchilikdagi amaliy ish, balki hayotda to‘g‘ri yo‘l tutish, ezgu amallar qilish, mehnatsevarlikni anglatadi. “Yaxshi non olish” esa faqat hosil emas, balki bu ezgu amallar va mehnatning barakali samarasini bildiradi.

Shunday qilib, maqolda non mehnatning yakuniy timsoli sifatida talqin etiladi. Urug‘dan non tayyor bo‘lgunga qadar bir necha bosqichlar mavjud: ekish - yetishtirish - yig‘ish - maydalash - yopish. Bu murakkab jarayon xalq nazarida insonning hayoti va mehnati bilan qiyoslanadi, kim to‘g‘ri niyat qiladi, to‘g‘ri harakat qiladi, oxirida barakali natijaga erishadi.

Maqolda axloqiy va ijtimoiy xulosa ham mavjud: yaxshi ish qilsang – yaxshi natijaga erishasan; yomon urug‘ eksang – sifatli hosil kutma.

“Qui sème bon grain récolte bon pain” maqolida kontrast va sabab–oqibat aloqasi birgalikda kuzatiladi: urug‘ (boshlang‘ich mehnat) va non (yakuniy natija); jarayon va samaradorlik; mehnatsevarlik va mehnatsiz natija yo‘qligi.

Semantik jihatdan bu maqol shuni ta’kidlaydiki, pain (non) – insonning mehnati va sa’y-harakatlarining yakuniy barakasi. Ezgu niyat va sifatli mehnat natijasi hamisha barakali bo‘ladi.

Pain coupé n’a point de maître (Kesilgan nonning xo‘jayini yo‘q). Mulk va umumiylik bir-biriga zid fikrni ifodalab kelayapti. Non bo‘lingach, u umumiy mulkka aylanadi (Sindirilgan nonni dasturxon atrofidagi har kim olib yeyishi mumkin).

Maqolda fransuz xalq donishmandligi oziq-ovqat va mulkka bo‘lgan munosabatni ramziy tarzda ifoda etadi. Butun non – bir kishining mulki sifatida qaraladi. Kesilgan (sindirilgan) non esa endi umumiylik belgisi, u o‘z “xo‘jayini”ni yo‘qotadi. Bu orqali xalq fikri shuni ko‘rsatadi, taqsimlangan narsaga endi egalik qilish mumkin emas, u hammaniki bo‘lib qoladi.

Bu hikmat ijtimoiy-axloqiy jihatdan hamjihatlik va tenglik g‘oyasini ilgari suradi. Non – hayotiy zarurat bo‘lgani uchun uni kesish va bo‘lish jarayoni uning individual mulk xususiyatini yo‘qotib, ijtimoiy qadriyatga aylantiradi.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, bu maqolda ramziy darajada insoniy qadriyatlarning ustuvorligi ham ko‘rinadi: xalq uchun non – bir kishining mulki emas, balki hayotni ta’minlovchi umumiy ne’mat.

“Pain coupé n’a point de maître” maqolida quyidagi kontrast mavjud, butun non (egalik, maître) – kesilgan non (umumiylik, egasizlik) ; shaxsiy mulk – umumiy mulk.

Semantik jihatdan maqolning asosiy mazmuni shundan iboratki, taqsimlangan oziq-ovqat umumiy bo‘ladi, unga egalik da’vo qilib bo‘lmaydi. Bu donishmandlik fransuz xalq madaniyatida hamjihatlik, tenglik va umumiylik qadriyatlarini ifodalaydi.

Nul pain sans peine (Mehnatsiz non bo‘lmaydi). Mehnat va ozuqa bir-biriga kontrast qo‘yilayapti. Nonning mavjudligi og‘ir mehnat bilan bog‘langan.

Bu maqolda xalq donishmandligi hayotiy ne’mat va unga erishish yo‘li o‘rtasida sabab–natija munosabatini ochib beradi. Non – oddiygina oziq-ovqat emas, balki umumiy hayotiy rizqning timsoli. Ammo bu rizq “peine” – mashaqqatsiz qo‘lga kiritilmaydi.

Fransuz madaniyatida non eng muhim oziq bo‘lgani uchun u orqali umumiy hayot falsafasi ifodalanadi, kim mehnat qilsa, u yashash uchun zarur rizqni topadi; kim mehnatsiz yashashni istasa, u nonni ham, hayotni ham yo‘qotadi.

Maqolda shuningdek, axloqiy va tarbiyaviy qatlam ham mavjud. U odamlarni mehnatga chorlaydi, tasodifiy omadga emas, balki halol mashaqqat evaziga erishilgan rizqqa urg‘u beradi.

“Nul pain sans peine” maqoli quyidagi semantik kontrastga ko‘ra, non (natija, hayotiy oziq) va mehnat (jarayon, mashaqqat); tiriklik va uning narxi (mehnat).

Semantik jihatdan maqolning asosiy mazmuni hayotiy ne’mat mehnatsiz berilmaydi, nonning o‘zi mashaqqat mahsuli.

Bu maqol fransuz xalqining qadriyatlarida mehnat yashashning yagona yo‘li ekanini chuqur ifodalaydi.

Les mains noires font le pain blanc (Qora qo‘llar oq nonni yaratadi). Mehnatning iflosligi va natijaning pokligi bir-biriga zid qo‘yiladi. Jismoniy mehnat og‘ir va iflos bo‘lsa ham, natijada sof va toza oziq yaratiladi.

Maqolning mazmuni shundaki, insonning jismoniy mehnati, qiyinchilik bilan bajarilgan ishlari tashqi tomondan iflos, og‘ir bo‘lsa ham, natijada sof va toza rizqni yuzaga keltiradi. Bu – mehnat va halollikning qadriyat sifatidagi ustunligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, bu maqolda mehnatkash insonni ulug‘lash motivi bor. “Qora qo‘l” – bu nafaqat mashaqqat, balki sharafli halol mehnat ramzi. “Oq non” esa

ISSN 3030-3907

mehnatkashning natijasini qadrlashni bildiradi. Demak, oq nonning qadri “qora qo‘l” tufayli yuzaga chiqadi.

“Les mains noires font le pain blanc” maqolida kontrast quyidagicha ifodalanadi: noir (qora, iflos, og‘ir) va blanc (oq, pok, qadrlangan); mehnat jarayoni (qiyin va iflos) va mehnat hosilasi (pok va sharafli).

Semantik jihatdan maqol xalq falsafasining chuqur qatlamini ochib beradi, halol mehnat mashaqqatli va ko‘pincha “qora” bo‘lsa ham, uning mevasi pok, oq va qadrlidir.

Eau de mai, c’est du pain pour toute l’année (May oyidagi yomg‘ir butun yil uchun non bo‘ladi). Tabiat va hosil. Nonning mavjudligi iqlim va tabiatga bog‘langan.

Bu maqolda tabiat hodisasi bilan inson hayoti uchun eng zarur oziq o‘rtasida semantik bog‘lanish o‘rnatiladi. May oyi yomg‘iri – qishloq xo‘jaligi uchun eng muhim davr, chunki bu paytda yog‘adigan yomg‘ir ekinlarning yaxshi unib-o‘sishiga sabab bo‘ladi. Natijada yil davomida non mo‘l-ko‘l bo‘lishi ta’minlanadi.

Kontrast shundaki, kuzatiladigan oddiy tabiiy hodisa (may yomg‘iri) inson hayotida eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik manbayi bo‘lib chiqadi. Demak, kichik sabab (bir oylik yomg‘ir) – katta oqibat (bir yillik non)ni keltiradi.

Maqolning semantik qatlamida shuningdek, insonning tabiatga qaramligi va tabiat bilan uyg‘un yashash zarurati ham yotadi. Nonning mavjudligi faqat insonning mehnatiga emas, balki tabiatning marhamatiga ham chambarchas bog‘liq. Bu orqali xalq donishmandligi tabiatga hurmat va tabiatni qadrlash g‘oyasini targ‘ib qiladi.

“Eau de mai, c’est du pain pour toute l’année” maqoli quyidagi semantik kontrastni o‘zida mujassamlashtiradi: may yomg‘iri (tabiiy hodisa) va butun yilgi non (ijtimoiy ne’mat) ; mavsumiy, qisqa vaqtli hodisa va uzoq muddatli farovonlik.

Semantik jihatdan u shuni ko‘rsatadiki, tabiat inson hayoti va farovonligining bevosita manbayi bo‘lib, nonning barakasi iqlim va ob-havoga bog‘liq.

Maqolda nonning qadri uning miqdori yoki sifati bilan emas, balki uni topish yo‘li bilan belgilanadi. Oddiy non – ochlikni qondiradi, lekin “dérobé” – ya’ni yashirincha olingan non – kutilmaganda yanada mazaliroqdek tuyuladi. Bu esa odam tabiatidagi psixologik kontrastni ochadi, taqiqlangan narsaga bo‘lgan qiziqish, halol bo‘lmagan narsaning o‘ziga xos “jilo”si.

Semantik jihatdan bu maqol ikki qatlamni o‘z ichiga oladi, axloqiy qatlam: halol mehnatsiz topilgan oziqning “qadrlanishi” aslida yolg‘ondir, bu odat kamsitiladi; psixologik qatlam, taqiqlangan narsaning o‘ziga xos jozibasi bor, odam tabiati shunga moyil.

ISSN 3030-3907

Shunday qilib, maqol bir vaqtning o‘zida ham ogohlantirish, ham inson psixologiyasini ifodalovchi hikmatdir.

“Pain dérobé réveille l’appétit” maqoli kontrastni quyidagicha quradi, halol non (oddiy, odatiy) va o‘g‘irlangan non (jozibali, “qadri balandroq”); biologik ehtiyoj (ochlik) va psixologik istak (taqiqlanganga qiziqish).

Semantik jihatdan u shuni ko‘rsatadiki, inson tabiati ko‘pincha taqiqlangan narsani qadrlaydi, lekin bu qadriyat aslida yolg‘on va baribir axloqiy nuqtayi nazardan salbiydir.

Fransuz xalq maqollarida “pain” konsepti faqat jismoniy oziq emas, balki turli xil kontrastlarda ishlatiladigan universal ramzdir. U orqali xalq tafakkurida kamlik va ko‘plik (miette de pain vs poules grasses); mehnat va natija (nul pain sans peine); moddiy va ma’naviy qadriyat (l’homme ne vit pas seulement de pain); halollik va haromlik (pain dérobé); oddiy va yuksak qadriyat (pain et vin, Roi) kabi oppozitsiyalar ifodalanadi. Shu bois pain fransuz paremiologiyasida milliy tafakkur, madaniyat va hayotiy tajribaning asosiy konseptual timsoli sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Снегирев И. М. Русские народные пословицы и притчи. М.: ЭКСМО-Пресс, 1995. – 510 с.
2. Солдаткина Т. А. Структурно-семантическая специфика французских паремиологических единиц // Фундаментальные исследования. 2014. № 6 (часть 4). – С. 862-866.
3. Галеева Г. И., Кононенко М. В. Русские и французские пословицы и поговорки – творения народного ума // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2016. №2-1 (56). – С. 85-87.

ISSN 3030-3907